

ARAB TILIDAGI SOMATIK FRAZEOLOGIZMLARNING SEMANTIK TAHLILI

Nematullayeva Sojida Xusniddin qizi

*O'zbekiston jurnalistika va ommaviy
kommunikatsiyalari universiteti o'qituvchisi*

Dunyo tillari frazeologiyasining asosiy qismini somatik frazeologizmlar tashkil etadi. Somatik frazeologizmlar tarkibida somatizmlar, ya'ni tana a'zolari nomlarini bildiruvchi so'zlar qatnashgan iboralardir. Aynan somatik frazeologiyada har bir xalqning ko'p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlar va an'analar o'z aksini topgan bo'ladi. Jahon tilshunosligida somatik frazeologizmlar haqida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Somatik frazeologizmlarning ilk tadqiqotchilaridan biri F. Vakk sanaladi. U butun somatik frazeologizmlarni uch guruhga ajratadi, ya'ni:

- faqat odamlarni tasvirlaydigan somatik frazeologizmlar;
- odam va hayvonlarni tasvirlaydigan somatik frazeologizmlar;
- faqat hayvonlarni tasvirlaydigan somatik frazeologizmlar.

Arab adabiyotining eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Ming bir kecha"da, frazeologizm va iboralarning muhim roli bor. Bu asarda, tana a'zolariga oid frazeologizmlar insonning ichki kechinmalari, hissiyotlari, harakatlari va ijtimoiy aloqalarini ifodalashda keng ishlatilgan. Tana a'zosiga oid frazeologizm va iboralar ko'pincha yuqori darajadagi ma'naviy va jismoniy holatlarni tasvirlashda yordam beradi. Ushbu maqolada "Ming bir kecha" asarida tana a'zolariga oid arab frazeologizmlari tahlil qilinadi, har bir tana a'zosi uchun o'ziga xos misollar va tahlillar keltiriladi.

I. (رأس) Bosh – insonning ma'naviy va jismoniy markazi sifatida, arab frazeologiyasida ko'p ishlatiladi. Asarda bosh bilan bog'liq frazeologizmlar kishilarning fikrlarini, qarorlarini, ruhiy holatlarini va g'ururlarini aks ettiradi.

(أعطى رأسه) "Boshini berish". Bu ibora biror kishining xavfli vaziyatga duchor bo'lishini yoki qiyinchiliklarga qarshi kurashishini anglatadi. "أعطى رأسه للملوك ليحامي نفسه من التهديدات" (U boshini hukmdorlarga berdi, o'zini tahdidlardan himoya qilish uchun.)

(رفع رأسه) "Boshini ko'tarmoq". Bu frazeologizm g'urur yoki muvaffaqiyatni ifodalashda ishlatiladi. "رفع رأسه بفخر بعد أن وصل إلى هدفه" (U maqsadiga erishgach, boshini g'urur bilan ko'tardi.)

(تمسك برأسه) "Boshini tutmoq". Bu ibora biror kishining qat'iyatini va o'z fikriga turg'unligini anglatadi. "تمسك برأسه بالرغم من اعتراضات الجميع" (U hamma qarshiliklarga qaramay, boshini tutdi.)

(فَهَزَّتْ رَأْسَهَا) "Boshini silkitdi". Bu frazeologizm kimningdir fikrlariga qarshi chiqish yoki rad etishni ifodalashda ishlatiladi. "فَهَزَّتْ رَأْسَهَا عندما عرض عليها الحل" (U yechimlarni taklif qilganida boshini silkitdi.)

(طار عقله من رأسه) "Aqlini boshidan uchirish". Hayajon, shoshilish yoki o'tkir vaziyatda aqlni yo'qotish holatini anglatadi. "طار عقله من رأسه عندما سمع الخبر المفاجئ" (U kutilmagan xabarni eshitgach, aqlini boshidan uchirdi.)

(أصبح رأسه مليئاً بالأفكار) "Boshida fikrlar to'lib ketdi". Insonning o'ylari va tashvishlari bosim qilganda ishlatiladi. "أصبح رأسه مليئاً بالأفكار بعد سماعه للخبر المفزع" (U dahshatli xabarni eshitgach, boshida fikrlar to'lib ketdi.)

(خسر رأسه) "Boshini yo'qotdi". Bu ibora aqlni yo'qotish, holatni boshqarolmaslikni anglatadi. "خسر رأسه بعد الفشل الكبير في خطته" (U katta muvaffaqiyatsizlikka uchraganidan so'ng boshini yo'qotdi.)

(حرك رأسه بالإيجاب) "Boshini rozi bo'lib silkash". Rozilik bildirishni ifodalashda ishlatiladi. "حرك رأسه بالإيجاب عندما اقترح عليه الحل" (U yechimni taklif qilganida boshini rozi bo'lib silkadi.)

(رأسه يشتعل غضباً) "Boshi g'azabdan kuydi". Bu ibora kuchli g'azabni ifodalashda ishlatiladi. "رأسه يشتعل غضباً عندما اكتشف الخيانة" (U xiyonatni aniqlagach, boshini g'azabdan kuydi.)

(بقي رأسه صامداً) "Boshini qattiq ushlab turmoq". Boshqa bosimlarga qarshi turish, qat'iyatni ifodalashda ishlatiladi. "بقي رأسه صامداً في مواجهة التحديات الصعبة" (U qiyin sinovlarga duch kelganida boshini qattiq ushlab turdi.)

II. (يد) Qo'l — harakat, yordam yoki kuchni anglatadigan a'zo sifatida, arab frazeologiyasida keng ishlatiladi. Qo'l bilan bog'liq frazeologizmlar asarda yordam, ijtimoiy aloqalar yoki harakatlarni ifodalashda ishlatiladi.

(بيده اليمنى يفعل) "Ong qo'li bilan qilmoq". Halollik, to'g'rilik va samimiyatni anglatadi. "بيده اليمنى يفعل الخير دون أن يطلب الشكر" (U o'zining yomonlik qilmasdan, halol ishlarni ongi bilan amalga oshiradi.)

(مد يده) "Qo'lni cho'zmoq". Yordam taklif qilishni ifodalashda ishlatiladi. "مد يده للآخرين في وقت الحاجة" (U muhtojlikda boshqalarga qo'l uzatdi.)

(ربط يده) "Qo'lni bog'lamoq". Bu ibora biror kishining imkoniyatlari cheklanganligini anglatadi. "ربطت يده بسبب القوانين الصارمة" (U qat'iy qonunlar sababli qo'lini bog'lab qo'ydi.)

(قَبَّلَتْ يَدِيهِ وَرَجْلِيهِ) "Qo'lini va oyoqlarini o'pdim". Hurmat va minnatdorchilik ifodasidir. "قَبَّلَتْ يَدِيهِ وَرَجْلِيهِ تَقْدِيرًا لِمَا فَعَلَهُ مِنْ أَجْلِي" (*U meni deb qilgan yaxshiliklari uchun uning qo'lini va oyoqlarini o'pdi.*)

(سَاعَدَهُ بِيَدِهِ) "Qo'li bilan yordam berish". Biror kishiga yordam ko'rsatish. "سَاعَدَهُ بِيَدِهِ فِي تَنْفِيزِ الْمَشْرُوعِ الْكَبِيرِ" (*U katta loyihani amalga oshirishda unga qo'li bilan yordam berdi.*)

(رَفَعَ يَدَهُ) "Qo'lini ko'tarmoq". Biror narsaga tasdiq yoki ruxsat berish. "رَفَعَ يَدَهُ لِيُؤَكِّدَ قَرَارَهُ الْنَهَائِي" (*U oxirgi qarorini tasdiqlash uchun qo'lini ko'tardi.*)

(أَخَذَ بِيَدِهِ) "Qo'lidan ushlamoq". Yordam yoki qo'llab-quvvatlashni anglatadi. "أَخَذَ بِيَدِهِ لِيَقُودَهُ إِلَى الطَّرِيقِ الصَّحِيحِ" (*U uni to'g'ri yo'lga yo'naltirish uchun qo'lidan ushladi.*)

III. (عين) Ko'z – arab madaniyatida, ko'pincha e'tibor, hayrat yoki qo'rquvni ifodalashda ishlatiladi. Asarda ko'z frazeologizmlari qahramonlarning hissiyotlarini va kutilmagan holatlar yuzasidan o'zgartirishlarni aks ettiradi.

• (احترقت عينيه) "Ko'zlari yondi" – Bu frazeologizm, odamning hayrat yoki qo'rquvni ifodalash uchun ishlatiladi. Asarda, voqealar hayratga soladigan yoki qo'rqitadigan bo'lsa, bu ibora ishlatiladi. "احترقت عينيه من رؤية المنظر الرهيب في تلك اللحظة" (*U o'sha paytda dahshatli manzarani ko'rganidan ko'zlari yondi.*)

• (بعيد عن العين) "Ko'zdan uzoqda" – Bu ibora, narsalar yoki kishilar ko'rmaslik, e'tibordan chetda qolish holatlarini tasvirlaydi. Masalan, biror kishi muhim vazifaga aloqador bo'lgan bir narsani unutganida, "ko'zdan uzoqda" iborasi ishlatiladi. "كان بعيد عن العين ولم يهتم به أحد" (*U ko'zdan uzoqda edi va unga hech kim e'tibor bermadi.*)

• (مأى عينيه) "Ko'zlarni to'ldirish" – Bu frazeologizm biror kishi biror narsaga to'liq e'tiborini qaratishini anglatadi. Masalan, biror go'zal manzara yoki ta'sirli voqeani ko'rgan kishi ko'zlarini to'ldiradi. "مأى عينيه من جمال الطبيعة التي أمامه" (*U oldidagi tabiat go'zalligidan ko'zlarini to'ldirdi.*)

(عين الماء) "Suv manbai" – Hayot manbai yoki zaruriy resurs. Bu frazeologizm, odamning eng muhim ehtiyojini qondiradigan, hayotini davom ettirish uchun zarur bo'lgan narsaga ishora qiladi. "إنه كان عين الماء بالنسبة له في تلك اللحظة، كل شيء كان يعتمد عليه" (*U o'sha paytda uning uchun hayot manbai edi, hamma narsa unga bog'liq edi.*)

IV. (أذن) Quloq — diqqat, tinglash va axborot qabul qilish bilan bog'liq bo'lgan frazeologizmlar asarda kishilarning e'tibori, sirlarni oshkor qilish yoki sir saqlashni tasvirlaydi.

(أصغى بأذنه) "Quloq solib qolmoq" – Biror kishining diqqat bilan eshitishi yoki muhim ma'lumotlarga e'tibor berishini anglatadi. Asarda bu ibora sirli yoki muhim

(U) "أصغى بأذنه إلى الحديث المثير الذي كان يُقال حوله." voqealarni eshitish uchun ishlatiladi. (*unga aytilayotgan qiziqarli suhbatga quloq solib qoldi.*)

"Quloqlarni to'smoq" (سد أذنه) – Bu frazeologizm biror kishining noxush gaplarni eshitishni xohlamasligini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, kimdir noxush haqiqatlarni eshitishdan qochsa, bu ibora ishlatiladi. "سد أذنه عن كلماتها الحزينة لأنها لم تستطع تحملها." (*U uning qayg'uli gaplaridan quloqlarini to'sdi, chunki u buni eshitishni ko'tara olmadi.*)

"Quloqlarini ochmoq" (فتح أذنه) – Bu frazeologizm biror kishining fikrlarni tinglashga tayyorligini ifodalaydi. Asarda bu ibora yangi ma'lumotlarni qabul qilishni yoki fikrni eshitishni anglatadi. "فتح أذنه لأفكار جديدة التي ستغير مسار حياته." (*U yangi fikrlarga quloqlarini ochdi, bu uning hayotini o'zgartirishi mumkin edi.*)

V. (يد) **Qo'l** — harakat, yordam yoki kuchni anglatadigan a'zo sifatida, arab frazeologiyasida keng ishlatiladi. Qo'l bilan bog'liq frazeologizmlar asarda yordam, ijtimoiy aloqalar yoki harakatlarni ifodalashda ishlatiladi.

"Ong qo'li bilan qilmoq" (بيده اليمنى يفعل) – Halollik va samimiyatni anglatadi. Asarda bu ibora odamning to'g'ri yo'lda, o'zi uchun foydali ishlarni qilishi holatini aks ettiradi. "فعل كل شيء بيده اليمنى يفعل الخير بكل صدق." (*U har narsani ong qo'li bilan qilib, har doim yaxshilikni chin dildan amalga oshirardi.*)

"Qo'lni cho'zmoq" (مد يده) – Bu frazeologizm yordam taklif qilishni yoki qo'l uzatishni anglatadi. Asarda kimdir yordam so'rayotganida yoki boshqa kishiga yordam berayotganda ishlatiladi. "مد يده لإنقاذها من المأزق الذي كانت فيه." (*U uni muammoga tushganida qutqarish uchun qo'lini cho'zdi.*)

"Qo'lni bog'lamoq" (ربط يده) – Bu ibora biror kishining imkoniyatlari cheklanganligini yoki biror ishni amalga oshirishga qodir emasligini ifodalash uchun ishlatiladi. Masalan, biror kishining shartlar yoki cheklovlar tufayli qo'li bog'langanida bu ibora ishlatiladi. "ربط يده بسبب الظروف الاقتصادية الصعبة التي مر بها." (*U iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli qo'lini bog'lab qoldi.*)

"Qo'lini va oyoqlarini o'pdim" (قَبَّلْتُ يديه ورجليه) – Hurmat, minnatdorchilik va ta'zimni ifodalash uchun ishlatiladi. Biror kishiga katta hurmat va minnatdorchilik bildirishni tasvirlaydi. "قَبَّلْتُ يديه ورجليه تعبيراً عن امتناني العميق لما قدمه لي." (*U menga ko'rsatgan yordamiga katta minnatdorchilik sifatida qo'lini va oyoqlarini o'pdim.*)

VI. (ركبة) **Tizza** — jismoniy charchoq, zaiflik holatlarini ifodalashda ishlatiladigan frazeologizmdir.

"Tizzalari sinmoq" (انكسرت ركبتة) – Bu frazeologizm jismoniy yoki ruhiy zaiflashish yoki charchash holatini tasvirlaydi. Asarda bu ibora ba'zi qahramonlarning jismoniy yoki ruhiy holatini aks ettirishda qo'llaniladi. "انكسرت ركبتة بعد رحلات طويلة في"

"الصحراء."

(*U sahroda uzoq safarlardan so'ng tizzalari sinib qoldi.*)

"Tizzasi yondi" – Charchoqni ifodalashda ishlatiladi. Biror kishi ko'p vaqt davomida ishlaganidan so'ng yirik charchoq yoki ta'sirni his qilganida bu ibora ishlatiladi. "احتراق ركبتة بعد العمل المتواصل طوال اليوم" (*U butun kun davomida davom etgan ishdan so'ng tizzasi yondi.*)

VII. (لسان) Til — insonning fikrlarini va his-tuyg'ularini ifodalovchi vosita sifatida ko'p ishlatiladi. Tilga oid frazeologizmlar asarda shaxsiy kechinmalar, muloqot va munosabatlarni ifodalashda ishlatiladi.

"Tilini bog'lash" – Biror kishining sirni saqlash yoki gapirishdan saqlanishi anglatadi. Asarda, ba'zan qahramonlar o'z fikrlarini yashirishga yoki sir saqlashga harakat qilishadi. "ربط لسانه ولم يفصح عن ما كان في قلبه" (*U tilini bog'lab, yuragida nima borligini oshkor etmadi.*)

"Tilini o'tkazmoq" – Biror kishining gapirish yoki fikrini oshkor qilishni anglatadi. Asarda, bu frazeologizm ijtimoiy muloqotda ishlatiladi, kishi o'z fikrini ifodalash uchun uni tiliga chiqaradi. "مرر لسانه بكل ما كان في ذهنه" (*U o'ylagan barcha fikrlarini tiliga chiqarib aytdi.*)

"Tiliga qaramay" – Bu frazeologizm biror kishining so'zlariga qarshi harakat qilishini anglatadi. Asarda, kimdir o'z so'zlarini aksincha, amalda bajarmayotganida ishlatiladi. "على لسانه كان يقول إنه سيقي، لكن أفعاله كانت تشير إلى عكس ذلك" (*U tilida qolish niyatida ekanligini aytgan bo'lsa-da, harakatlari aksincha bo'ldi.*)

VIII. (قلب) Yurak — his-tuyg'ularning markazi sifatida arab tilida keng qo'llaniladigan frazeologizmdir. Yurak bilan bog'liq iboralar qahramonlarning ichki kechinmalarini, sevgi, qo'rquv yoki umidlarni ifodalashda ishlatiladi.

"Yuragini ochmoq" – Bu ibora biror kishining ichki kechinmalarini oshkor qilishini anglatadi. Asarda, biror kishi o'z sirilarini ochayotganda yoki boshqa kishiga ishonib, yuragini to'kayotganda ishlatiladi. "فتح قلبه وأخبرها بكل ما كان يشعر به" (*U yuragini ochdi va unga his-tuyg'ularini aytib berdi.*)

"Yuragi titragan" – Qo'rquv yoki tashvishni ifodalashda ishlatiladi. Asarda, bu frazeologizm kishi ruhiy holatining zo'riqishini yoki qo'rquvni his qilishini tasvirlashda qo'llaniladi. "قلبه ارتجف خوفاً مما سيحدث في المستقبل" (*U yuragi kelajakda nimalar bo'lishidan qo'rquvdan titradi.*)

"Men yurakdan qayg'uraman" – Ruhiy qayg'u, iztirob yoki ichki dardni tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu ibora odatda odamning his-tuyg'ularidagi chuqur og'riqni ifodalaydi. "وأنا حزین القلب على فراقه" (*Men yurakdan qayg'uraman, chunki u menga xayrlashdi.*)

(قلت في قلبي) "Yuragimda dedim" – Ichki fikr yoki sirni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu ibora, kishi o'zining ichki kechinmalari yoki fikrlarini o'ziga sir saqlashini bildiradi. "قلت في قلبي أنني لن أتركه أبداً." (*Yuragimda dedim, men uni hech qachon tark etmayman.*)

Ushbu tadqiqot jarayonida inson tana a'zolariga oid bo'lgan yuzlab arabcha ibora to'plandi va ko'rib chiqildi. Iboralar, asosan, arab adabiyotining eng mashhur asarlaridan biri bo'lgan "Ming bir kecha"dan olindi.

Mazkur guruhga oid iboralarning asosiy komponenti bo'lib (رأس) bosh, (عين) ko'z, (أذن) quloq, (يد) qo'l, (ركبة) tizza, (لسان) til va (قلب) yurak keladi. **Bosh (رأس) va Qo'l (يد)** so'zlariga oid frazeologizmlar asarda **ma'naviy va ijtimoiy holatlarni aks ettirishda** eng ko'p ishlatilgan. **Bosh** frazeologizmlari ko'pincha **g'urur, qarorlar, ruhiy holatlar** va **shaxsiy kechinmalarni** tasvirlaydi. **Qo'l** frazeologizmlari esa, asosan **yordam, harakat, samaradorlik** va **ijtimoiy aloqalarni** ifodalashda ishlatiladi.

Ikkala so'zning ishlatilishi orqali asar qahramonlarining ichki dunyosi va tashqi aloqalari, turli vaziyatlarda qanday o'zgarishlar yuz berishi, shaxsiy qarorlar va harakatlar qanday amalga oshirilishini tasvirlash mumkin. Bu frazeologizmlar orqali qahramonlar o'zlari uchun muhim bo'lgan holatlarda qanday fikrlashlarini va qanday harakat qilishlarini o'quvchilarga aniq yetkazadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.SH.H.Nurmamatova.Fil.f.d.diss...avtoreferati.(2021),2-B.
- 2.M.I.Gadoyeva. Somatizm frazeologik birliklarning konseptual tahlili. NamDu ilmiy axborotnomasi,(2020 yil, 12-son)
- 3.Q.Karimov.Qutadg'u bilig.O'zbekiston,T.(1971),5,14-B.
- 4.B.I.Boltayeva.O'zbek tili frazeologik birliklarning transformatsiyasi.Dessetatsiya avtoreferati.(2019) 13-B.
- 5.Sharustam Shamusarov.Uchites uchitsya. Tashkent.2-oye izdaniye.2016
- 5.Yo'ldoshev.B, Rashidov.U.O'zbek frazeologiyasi. Toshkent. Navro'z,(2016)6.U.M.Rashidova.O'zbek tilidagi somatik iboralarning semantik-pragmatik tahlili. Fil.fan.diss.avtoreferati, Samarqand,(2018),2-B
6. بتاريخ ١٠٥٨٥٩٧٠ برقم المشهرة / ١ / هنداي. ٢٠١٧ الف ليلة وليلة. الناشر مؤسسة.